


UMUMIY O`RTA TA`LIM 2018-2019 O`QUV YILI BOSHIGA


2018/2019 o`quv yilida mavjud 926 ta umumiy o`rta ta`lim maktablarida jami 627726 ta o`quvchilar tahsil olgan bo`lsa, ulardan 296313 nafari qishloq joylarda joylashgan 510 ta umumiy o`rta ta`lim maktablari hissasiga to`g`ri keladi. Umumiy o`rta ta`lim maktablaridan 72,7 foizi ikki smenada mashg`ulot olib boradi. Ushbu ko`rsatkich hududlar bo`yicha tahlil qilinganda, Beshariq tumani(100,0%), Uchko`prik tumani (81,1%), O`zbekiston tumani (80,3%), Buvayda tumani (80,0%), Toshloq tumanida (79,2%), Oltiariq tumani (78,7%) hamda Farg`ona shahrida (77,1%) yuqori foizni tashkil etmoqda. Viloyat bo`yicha umumiy o`rta ta`lim maktablaridagi o`quvchilarning 192905 nafari ikkinchi smenada ta`lim olmoqda.

Umumiy o`rta ta`lim maktablari soni hamda o`quvchi va o`qituvchilar soni


(2014-2019 yillarida)




Umumiy o`rta ta`lim maktablarini mashg`ulotlar smenaliligi bo`yicha taqsimlanishi foizda (2014-2019 yillarida)



Umumta`lim muassasalari va ulardagi o`quvchilarni o`qitiladigan tillar bo`yicha taqsimlanishi



Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar va ulardagi o'quvchilar soni



Ta'lim tizimining ahvoli haqida muhim ma'lumot beruvchi ko'rsatkichlardan biri bu ta'lim muassasalarida har bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar sonidir. U o'quvchilar umumiy sonini o'qituvchilar umumiy soniga bo'lish orqali aniqlanadi. 2018-2019 o'quv yili boshiga Farg'ona viloyatining umumta'lim maktablarida har bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni 13.5 ga teng bo'ldi .

Hududlar bo'yicha har bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni, 2018-2019 o'quv yili boshiga

